



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Кариш, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибадуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каришбоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



UDK: 631.1:631.15

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.6>

BARQAROR QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Muxammadiyeva Dilafruz Alisher qizi

Jalilova Zumrad Axmatovna

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

Мухаммадиева Дилафруз Алишер кизи

Джалилова Зумрад Ахматовна

THEORETICAL FOUNDATIONS OF SUSTAINABLE AGRICULTURAL DEVELOPMENT

Mukhammadiyeva Dilafruz Alisher kizi

Jalilova Zumrad Akhmatovna

Received: January 17, 2026 Revised: January 19, 2026 Accepted: January 21, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning nazariy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda barqaror rivojlanish konsepsiyasi, uning qishloq xo‘jaligiga tatbiqi, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida barqaror qishloq xo‘jaligini ta‘minlash mexanizmlari umumlashtirilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish hamda institutsional islohotlar barqaror qishloq xo‘jaligining muhim omillari ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Barqaror rivojlanish, qishloq xo‘jaligi, nazariy asoslar, ekologik barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi, resurslardan samarali foydalanish.

■ KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqlim o‘zgarishlari sharoitida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining barqaror rivojlanishini ta‘minlash jahon miqyosidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Aholi sonining jadal o‘sishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortib borishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda ekologik muammolarning keskinlashuvi an‘anaviy qishloq xo‘jaligi modelining imkoniyatlarini tobora qisqartirmoqda. Shu bois, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda yangi, uzoq muddatli va barqaror yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Barqaror qishloq xo‘jaligi konsepsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish bilan cheklanib qolmasdan, er va suv resurslaridan oqilona foydalanish, biologik xilmaxillikni saqlash, qishloq aholisining daromadlari va turmush sifatini yaxshilashni ham o‘z ichiga oladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, barqaror qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning muhim omili bo‘lib, u davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanish strategiyalarida alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDGs) qishloq xo‘jaligi barqarorligi, qashshoqlikka barham berish va ekologik muvozanatni saqlash bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etilgan. O‘zbekiston Respublikasi sharoitida ham qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Suv resurslarining cheklanganligi, er degradatsiyasi, iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘siri va agrar sohada innovatsion faoliyatning etarli darajada rivojlanmaganligi ushbu yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning nazariy asoslarini o‘rganish va tizimli tahlil qilish mazkur tadqiqotning muhim vazifasi hisoblanadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Barqaror qishloq xo‘jaligi konsepsiyasining nazariy asoslari barqaror rivojlanish g‘oyasining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu konsepsiyaning ilmiy asoslari G.H. Brundtland rahbarligida tayyorlangan BMTning “Our Common Future” hisobotida (1987) bayon etilgan bo‘lib, unda iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy taraqqiyot va ekologik



muvozanat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab berilgan. Mazkur yondashuv keyinchalik agrar sohada barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Qishloq xo'jaligida barqarorlik masalalarini tizimli ravishda tadqiq etgan etakchi olimlardan biri Robert Chambers hisoblanadi. U o'zining "Rural Development: Putting the Last First" asarida qishloq xo'jaligini rivojlantirishda markazlashgan boshqaruvdan ko'ra, mahalliy aholi ehtiyojlari va resurslariga asoslangan yondashuv samaraliroq ekanligini ta'kidlaydi. Chambersga ko'ra, barqaror qishloq xo'jaligi ijtimoiy inklyuzivlik va institutsional moslashuvchanlikka tayangan holda shakllanadi.

Jules Pretty barqaror qishloq xo'jaligini agroekologik tamoyillar asosida izohlaydi. Uning tadqiqotlarida (Pretty, 2008) kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlardan haddan tashqari foydalanish ekologik muvozanatni buzishi qayd etilib, biologik xilma-xillikni saqlash, tuproq unumdorligini tabiiy yo'l bilan oshirish barqarorlikning muhim sharti sifatida ko'rsatib o'tilgan. Pretty qishloq xo'jaligida intensivlikdan ko'ra, resurs tejovchi va ekologik moslashuvchan modelni ilgari suradi.

Amerikalik olim Norman Borlaug, "yashil inqilob" asoschisi sifatida, yuqori hosilli navlarni joriy etish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mumkinligini ilmiy jihatdan isbotlagan. Biroq keyingi tadqiqotchilar (Conway, 1997; Tilman et al., 2011) Borlaug yondashuvini tanqidiy qayta baholab, intensiv texnologiyalar ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashmagan taqdirda uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishish qiyinligini ta'kidlaganlar.

Gordon Conway "The Doubly Green Revolution" asarida qishloq xo'jaligida barqarorlikni ta'minlash uchun innovatsion texnologiyalarni ekologik tamoyillar bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslab beradi. Uning fikricha, qishloq xo'jaligi nafaqat hosildorlikni oshirishi, balki atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirishi lozim.

Iqlim o'zgarishlari sharoitida barqaror qishloq xo'jaligi masalalarini David Tilman, Ruth DeFries va Pamela Matson kabi olimlar keng o'rgangan. Ular qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish bilan ekologik yuklama o'rtasida muvozanatni saqlash zarurligini ta'kidlab, "barqaror intensivlashtirish" (sustainable intensification) konsepsiyasini ilmiy asoslab berganlar.

Xalqaro tashkilotlar doirasida olib borilgan tadqiqotlarda (FAO, World Bank, OECD) barqaror qishloq xo'jaligi oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. FAO ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan "Climate-Smart Agriculture" konsepsiyasi qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishlariga moslashuv va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

O'zbekiston va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda barqaror qishloq xo'jaligi asosan agrar islohotlar, er va suv resurslarini boshqarish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Xususan, mahalliy tadqiqotchilar sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash,

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini oshirishni ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilaydilar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, barqaror qishloq xo'jaligi bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar muhim nazariy va amaliy asoslarni yaratgan bo'lsa-da, ushbu konsepsiyaning nazariy jihatlarini hududiy xususiyatlar va milliy agrar siyosat bilan uyg'unlashtirgan holda kompleks yoritish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur holat mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy konsepsiyalar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida barqaror rivojlanish nazariyasi va institutsional iqtisodiyot yondashuvlari qabul qilindi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, barqaror qishloq xo'jaligi uch asosiy komponentga tayangan holda rivojlanadi: iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy rivojlanish. Iqtisodiy jihatdan barqarorlik ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, daromadlarni barqaror ta'minlash bilan ifodalanadi. Ekologik barqarorlik esa tuproq unumdorligini saqlash, suv va er resurslaridan oqilona foydalanishni talab etadi. Ijtimoiy barqarorlik qishloq aholisining turmush darajasini oshirish va bandlikni ta'minlash bilan bog'liqdir. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli qishloq xo'jaligi va ilmiy yutuqlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish barqarorlikni ta'minlovchi muhim omillar sifatida aniqlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi kompleks va tizimli yondashuvni talab etishini ko'rsatdi. Olingan ilmiy xulosalar shuni anglatadiki, qishloq xo'jaligida barqarorlikni ta'minlash faqat ishlab chiqarish hajmlarini oshirish yoki alohida texnologik echimlarni joriy etish bilan cheklanib qolmaydi, balki iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar o'rtasidagi muvozanatga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalarida aniqlanganidek, iqtisodiy samaradorlik qisqa muddatli davrda hosildorlik va daromadlarning oshishiga xizmat qilishi mumkin, biroq ekologik omillar etarli darajada hisobga olinmagan sharoitda ushbu natijalar uzoq muddatda barqaror bo'la olmaydi. Bu holat er degradatsiyasi, suv resurslarining tanqisligi va ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi orqali namoyon bo'ladi. Natijada iqtisodiy samaradorlikning o'zi ham pasayish xavfiga duch keladi. Ekologik barqarorlik bo'yicha olingan natijalar tuproq unumdorligini saqlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirish qishloq xo'jaligi tizimining uzoq muddatli barqarorligi uchun asosiy shartlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari ekologik omillar e'tibordan chetda qolgan holatlarda ishlab chiqarish salohiyatining pasayishini tasdiqlaydi. Bu esa barqaror qishloq xo'jaligida ekologik komponentning muhim o'rnini yana bir bor asoslab beradi. Ijtimoiy jihatdan tahlil qilingan natijalar qishloq hududlarida bandlik, aholi daromadlari va bilim



darajasining barqaror rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Qishloq aholisi manfaatdorligi va ishtiroki ta'minlanmagan sharoitda innovatsion texnologiyalar va resurs tejovchi yondashuvlar kutilgan natijani bermaydi. Bu holat barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishda inson kapitali va ijtimoiy omillarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion va raqamli texnologiyalar iqtisodiy va ekologik samaradorlikni oshirish imkonini bersa-da, ularning samaradorligi institutsional muhit va boshqaruv mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Normativ-huquqiy bazaning etarli darajada takomillashmaganligi yoki moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining cheklanganligi innovatsion jarayonlarning sekinlashuviga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, munozara natijalari shuni ko'rsatadiki, barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishda alohida yo'nalishlarga ustuvorlik berish emas, balki ularni yagona tizim sifatida boshqarish muhimdir. Tadqiqotda aniqlangan iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha nazariy qarashlarni chuqurlashtirish va amaliy siyosatni shakllantirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy rivojlanish omillarining uyg'unligiga tayanishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Olingan natijalar qishloq xo'jaligida barqarorlikni ta'minlash qisqa muddatli choralar bilan emas, balki uzoq muddatli va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishini ko'rsatadi.

Mening fikrimcha, barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishda asosiy muammo alohida resurslar etishmasligida emas, balki ularning samarali va muvofiqlashtirilgan boshqarilmasligidadir. Iqtisodiy va ekologik maqsadlar o'rtasidagi muvozanat buzilganda, rivojlanish barqarorligini ta'minlash qiyinlashadi.

Tadqiqot natijalari barqaror qishloq xo'jaligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy indikatorlardan foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish kadrlar salohiyati va institutsional muhit bilan uyg'unlashgandagina yuqori samaradorlik beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- agrar siyosatda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarni yagona tizimda uyg'unlashtirish;
- yer va suv resurslaridan foydalanishda barqaror boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish;
- barqaror qishloq xo'jaligini baholash uchun milliy indikatorlar tizimini ishlab chiqish;
- agrar sohada innovatsiyalarni joriy etishni bilim va malaka oshirish bilan birgalikda amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha nazariy qarashlarni chuqurlashtiradi hamda ularni amaliy agrar siyosatda qo'llash uchun ilmiy asos yaratadi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsent v.b. Muxammadiyeva Dilafruz Alisher qizi / Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsent v.b. Muxammadiyeva Dilafruz Alisher qizi / **Muxammadiyeva Dilafruz Alisher qizi** – Acting Associate Professor of the Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University.

daminov.da1996@gmail.com

0009-0008-3337-6203

2. Jalilova Zumrad Axmadovna Qarshi davlat texnika universiteti, magistr / Джапилову Зумрад Ахмадовну, Каршинский государственный технический университет, магистр / Jalilova Zumrad Akhmadovna Karsh State Technical University.

zumradjalilova@gmail.com

0009-0005-1457-7584

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brundtland G.H. Our Common Future. — Oxford: Oxford University Press, 1987.
2. FAO. Sustainable Agriculture for Development. — Rome: FAO, 2017.
3. FAO. Climate-Smart Agriculture: Sourcebook. — Rome: FAO, 2013.
4. Pretty J. Agricultural Sustainability: Concepts, Principles and Evidence. — London: Earthscan, 2008.
5. Chambers R. Rural Development: Putting the Last First. — London: Longman, 1983.
6. Conway G. The Doubly Green Revolution: Food for All in the 21st Century. — London: Penguin Books, 1997.
7. Tilman D., Balzer C., Hill J., Befort B.L. Global food demand and the sustainable intensification of agriculture // Proceedings of the National Academy of Sciences. — 2011. — Vol.108(50).
8. Altieri M.A. Agroecology: The Science of Sustainable Agriculture. — Boulder: Westview Press, 2012.
9. World Bank. World Development Report: Agriculture for Development. — Washington, DC, 2008.
10. OECD. Innovation, Agricultural Productivity and Sustainability. — Paris: OECD Publishing, 2016.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
12. Karimov A., Xudoyberdiyev B. Qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanishning iqtisodiy asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz